

**O‘ZBEK TILIDA MA’NO KO‘CHISH USULLARI: METAFORA,  
METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK**

*Akbarali Boymirzayev*

*DTPI, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Boymirzayev Muhammad,*

*DTPI, Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi*

*3-bosqich talabasi*

*Bozorova Zuhra*

*DTPI, Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili*

*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqoolada leksik ma’no, ma’no ko‘chishi hodisasi, bosh ma’no va hosila ma’nolar munosabati yoritib berilgan. Shuningdek, hosila ma’nolarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq jarayonlar tavsifi ham berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *leksik ma’no, ma’no ko‘chishi hodisasi, bosh ma’no va hosila ma’no, metafora, metanomiya, sinekdoxa, vazifadoshlik*

**Abstract:** *The article describes the lexical meaning, the phenomenon of meaning transfer, the relationship between the main meaning and derived meanings. A description of the processes related to the emergence of derivative meanings is also given.*

**Key words:** *lexical meaning, the phenomenon of meaning transfer, primary meaning and derivative meaning, metaphor, metonymy, synecdoche, function.*

Leksikologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida so‘zning leksik ma’nosini tekshiradi va bu sohada amalga oshiriladigan tadqiqotlar bevosita til leksikasi – lug‘at tarkibi bilan bog‘liq muammolarga kiradi. Bunda tilning lug‘at boyligi, so‘z va uning lug‘aviy ma’nolari, shuningdek, so‘z va uning ko‘chma ma’nolari, ma’no ko‘chish usullari kabi muammolar ham tadqiq qilinadi.

Bosh va ko‘chma ma’no 1. Bosh ma’no (o‘z ma’no) deganda so‘zning asl ma’nosi tushuniladi so‘zlarning nutq jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan atash ma’nosi tushuniladi. 2. Ana shu lug‘aviy ma’no asosida boshqa ma’nolar ham ifodalansa, u yasama (ko‘chma) hisoblanadi 3 Ko‘chma ma’no deganda bosh ma’no zaminida hosil qilingan yangi ma’no, so‘zning nutqqa boshqa so‘zlarga bog‘lanib hosil qiladigan yondash ma’nosi tushuniladi. Masalan: tulki so‘zi aslida yovvoyi hayvonning bir turi ma’nosini anglatadi. Mirzakarimboy—tulki odam gapida tulki so‘zi ayyor quv kabi ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Yoki kumush-nutq tarkibidan tashqarida oq rangdagi qimmatbaho metal ma’nosini ifoda etadi bu uning bosh ma’nosi .Kumush so‘zi qish va qor kabi so‘zlar bilan bog‘langanda ko‘chma ma’no kasb etadi.

Ko'chma ma'no-bir so'zdan, ikkinchi so'zga ko'chirilgan semantik mohiyatdir. Ma'no ko'chishlari o'zbek tilida ko'p uchraydi. Tilimizdagi mavjud so'zlar ma'nolarining o'sishi ma'no ko'chishi, ma'noning kengayishi yo torayishi tarzida yuz beradi. Borliqdagi narsa hodisa belgi-xususiyat harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa hodisa belgi-xususiyat, harakat holatning nomi sifatida xizmat qiladi. So'zlarda ma'no ko'chishi nima asosida ko'chishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadishlik kabi turlarga bo'linadi. Ularni quyidagi munosabatlar orqali bir-biridan farqlashimiz mumkin.

- 1) tashqi o'xshashlik munosabati-metafora;
- 2) aloqadorlik munosabati-metonimiya;
- 3) butun va qism munosabati-sinekdoxa;
- 4) vazifadagi o'xshashlik munosabati-vazifadoshlik;

So'zning tasvirlanayotgan voqelikning mohiyatini ochish uchun turli ma'nolarda tovlanishi, ya'ni so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi ilmiy jihatdan, uni o'qitish usullari esa metodik jihatdan maxsus o'rganilgan. Metafora haqida B. Raxmonova shunday deydi: —badiiy asar tilida leksemalarning ko'p ma'noli bo'lib kelishiga olib kelgan asosiy hodisa metaforadir. Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usuli sifatida badiiy nutqning, nutq badiiyatining muhim omillaridan hisoblanadi. "Jahon tilshunosligida ham ko'chma ma'noni hosil qiluvchi so'zlarni tasniflashga doir bir qancha qarashlar mavjud. Masalan, fransuz tilshunosi J. Maruzo ko'chma ma'noli so'zlarni uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxaga ajratadi. Ma'no ko'chishlar-qaysidir ma'noda tilning o'zimizga xos jihatidir, ya'ni tilda biz uchun gapirish noqulay bo'lgan so'zlarni ma'no ko'chish turlari orqali atashdir.

Ma'no ko'chish turlarining o'ziga xos jihatlari: o'zbek tili lug'at boyligining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi, nutqni jozibalroq va qisqaroq tasvirlaydi. Metafora bu- gapda boshqa narsani eslatib, bir narsaga ishora qiladigan nutq figurasi. Metaforalarda bir-biriga bog'liq bo'lmagan, ammo umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan ikkita narsani taqqoslash mavjud. Metaforada ma'nolarni bog'lash uchun biron bir bog'lamadan foydalanilmaydi (masalan, o'xshash yoki shunga o'xshash), lekin munosabat taxmin qilinadi. Masalan: Muhammad Yusufning "Osmonning oxiri" dostonida quyidagicha ma'no ko'chish turlaridan mohirlik bilan foydalanilgan.

Oftob osmonning oxiriga borib botmaydi, balki yig'laydi....

Tog'ning boshi yerning ko'ksida, xo'sh osmonning boshi kimning ko'ksida.....

Bir og'iz sovuq so'z bilan diling yana zimiston.....

*Momaqaldiroq dunyoni boshiga ko'tarib hayqiradi, yulduzlar qo'rqib qochib qolishadi, bulutlar esa yig'lashga tushadi. Kulib gul ochiladi, yig'lab shabnam to'kiladi. ...Osmonning oxiri uzoq sharqda - dengizning yoqasida ekan. Bedazorda ana shunday xayol surib yotsam, qanotlari oppoq bir kapalak kelib yelkamga chordona*

*qurib otirib oladi... kapalak bir xo'rsinib jo'navoradi.* Asarda keltirilgan misollarda biz asosan o'xshashlik, ya'ni metafora usulida ma'no ko'chganligining guvohi bo'ldik. Shoir shu kabi ma'no ko'chish turlaridan foydalanganining sababi so'zlarning sodda, qisqa, tez tushunilishi va eng asosiysi ta'sirchanligini oshirishdir. Yuqorida keltirilgan misollar, ya'ni osmonning yig'lashi, tog'ning boshi, sovuq so'z, yulduzlarning qo'rqib qochishi, gulning kulishi, shabnamning yig'lashi; bularning barchasida ham insonlarga xos xususiyatlarni o'xshtishlar orqali narsalarga ko'chirilgan. Osmonning yig'lamasligini hammamiz bilamiz, faqatgina quyoshning botishi arafasida osmonning rangi o'zgarib qizarishi jarayoni insonning yig'alishiga o'xshtilgan, yulduzlarning qo'rqib qochishi jarayonini esa insonlardagi qo'rquv, vahima degan mavhum tushuncha yoki insonning harakatlariga o'xshatib metaforaning harakat o'xshaligi turidan foydalanilgan, yoki bo'lmasa gulning kulmasligi, shabnamning yig'lamasligi hammamizga ma'lum. Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasida ham yuqoridagi kabi ko'plab ma'no ko'chishlarni kuzatishimiz mumkin. Ulug' Amir Temur tengsiz kurashlar, o'tkir aql va tadbirkorlik bilan tiklagan saltanatini adolat bilan boshqarish hamda imkon boricha ezgu ishlar qilishga hamisha intiladi.

Metonimiya uslubi tilning boyligi, ekspressivligi va tasvirni berish uchun ishlatiladi. Metonimiya ritorika, poetika va leksikologiyada keng tarqalgan. Sinekdoxa (yun. synekdoche — birga nazarda tutmoq, birga o'ylamoq) — metonimiya (majoz)ning ko'rinishlaridan biri; Sinekdoxada ham ma'no ko'chishi o'xshashlik, bog'liklikka asoslansada, bu yerda ko'chish ob'yektlari o'rtasidagi miqdoriy belgi yetakchilik qiladi; butun narsaning nomini uning qismi nomi bilan va, aksincha, qism nomini butun narsaning nomi bilan atashdir. Masalan: Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasida ijodkor quyidagicha ma'no turlardan foydalangan.

*.....Bugundan kelajakdan malomat bilan  
Minglab ko'zlar tikiladi bitta o'zimga  
Chunki mening qismatimga janglar yozilgan.....  
.....Ayollarning sho'ri qursin  
Tandirdir ular  
Endi esa tilga kirsin ko'hna ovrupa....  
....  
-Ovrupaning nayranggiga laqqa uchding-u  
....  
-Sohinqiron Temuringdan yuzni o'girding.*

Guvohi bo'lganimizdek yuqoridagi misollarda aloqadorlik munosabati, ya'ni metonimiya, butun va qism munosabati-sinekdoxa kabi ma'no turlari qo'llangan. "Minglab ko'zlar tikiladi bitta o'zimga" bu yerda ko'zlar so'zi odamlar so'zi ornida qo'llanib butun va qism munosabati, ma'no ko'chishlarning sinekdoxa turini hosil qilgan. "...tilga kirsin ko'hna Ovrupa yoki Ovrupaning nayranggi

deganda, ko'ha ovropadagi odamlar yoki ovropalik insonlarning nayrangi degan ma'nolar o'rnida qo'llanib aloqadorlik munosabati orqali ma'no ko'chishlarning metonimiya turi hosil qilingan.

Vazifadoshlik (funktsiyadoshlik). Bir predmetning vazifasini ikkinchi bir predmet bajarishi natijasida avvalgining nomini keyingisi ifodalashi asosida ko'chishi vazifadoshlik deyiladi. Vazifadoshlik asosida vujudga kelganso'zlarni bilish, ulrning ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganligini anglash tilimiz imkoniyatlarini naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordm beradi. Vazifadoshlik o'xshashlikka asoslanishi bilan metaforaga o'xshaydi. Farqi shundaki metaforada predmet, belgi harakat o'xshashligi asos qilinib olinadi. Ba'zan ma'no ko'chishida metafora va vazifadoshlik usullari birga qo'llanilishi mumkin. Vazifadoshlik asosid vujudga kelgan so'zlarni bilish ularning ilgari qanday shakldaligini, bilishimiz imkoniyatlari naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi. Devorning ham qulog'i bor. Samalyotning qanoti. Ukalaringga ko'z-quloq bo'l. Samalyotning qanoti yoki devorning qulog'i kabi misollarni biz metaforada ham uchratishimiz mumkin ekan. Masalan qushning qanoti va samalyotning qanoti o'xshash, demak bularni metafora deyishimiz ham mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, insonlardagi harakat, belgi va shakllarni o'xshatish orqali biror narsaga ko'chirish va ko'chirish orqali shu so'zlarning tushunilishi sodda va ta'sirchanligini oshirishda; narsalarning ichki aloqadorlik asosida qayta nomlanishi; butunni aytishimiz bilan qism, qismni aytishimiz bilan butunni eslatadigan so'zlar, yoki bir xil vazifadagi so'zlar ma'no ko'chish turlarini hosil qiladi. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova Hozirgi o'zbek adabiy tili "Sharq"- 2002.
2. H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – "Talqin" – 2005.
3. N. Turniyozov, A. Rahimov O'zbek tili (ma'ruzalar matni)
4. S. Xojiyev so'z ma'nolarining ko'chishi .2007
5. Sayliyeva Anora , USLUBIYAT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA , Yosh Tadqiqotchi Jurnal: Vol. 1 No. 4 (2022): Yosh Tadqiqotchi Jurnal
6. D. Dasmuratov Qahromon, **O'zbek epstolyar nasrining shakllanishi va taraqqiyot yo'llari**, TAMADDUN NURI / THE LIGHT OF CIVILIZATION  
ISSN 2181-8258 2024-yil, 7-son

WWW.ziyonet.uz

<https://t.me/masofatalim>